



# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


## Doimiy aholi soni.

Sirdaryo viloyati doimiy aholisi soni 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 849,7 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 3,4 ming kishiga yoki 0,4 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 362,6 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 42,7 %), qishloq aholisi soni 487,1 ming kishini (57,3 %) tashkil etdi.

### E'tibor bering: 2020-yil yanvar-mart

- Aholi soni **3,4 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **4,4 ming nafarni** tashkil etdi.
- **0,9 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **1,2 mingta nikoh** va **0,3 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Sirdaryo viloyati aholisining umumiy o'sishi (2020-yil yanvar-mart oylarida)



## Demografik holat

### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi (2019-2020-yillar 1-aprel holatiga ko'ra dastlabki ma'lumot, ming kishi)

	2019-yil	2020-yil*	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>833,0</b>	<b>849,7</b>	<b>102,0</b>
Guliston sh.	89,4	91,0	101,8
Shirin sh.	18,6	18,8	101,1
Yangiyer sh.	42,7	43,6	102,1
tumanlar:			
Oqoltin	51,1	52,1	102,0
Boyovut	127,6	129,8	101,7
Guliston	70,9	72,8	102,7
Sayxunobod	76,0	77,4	101,8
Mirzaobod	71,6	73,7	102,9
Sardoba	64,9	66,1	101,8
Sirdaryo	126,2	128,7	102,0
Xovos	94,0	95,7	101,8


\*) dastlabki ma'lumot

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra eng ko'p aholi soni Boyovut tumanida 129,8 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 15,3 % ni) va Sirdaryo tumanida 128,7 ming kishini (15,1 %), aksincha eng kam aholi soni Shirin shahrida 18,8 ming kishi (2,2 %) va Yangiyer shahrida 43,6 ming kishini (5,1 %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2019-yilning mos davriga nisbatan Mirzaobod tumanida 2,9 % ni, Guliston tumanida 2,7 % ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Shirin shahrida 1,1 % ni tashkil etdi.

## Demografik holat

### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra dastlabki ma'lumot, ming kishi)



### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi (2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra dastlabki ma'lumot, % da)




## Demografik holat

### Jinsi bo'yicha doimiy aholi sonining bo'linishi (2020-yil 1-aprel holatiga dastlabki ma'lumot, ming kishi)

	erkak	ayol
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>426,6</b>	<b>423,1</b>
Guliston sh.	45,4	45,6
Shirin sh.	9,2	9,6
Yangiyer sh.	21,7	21,9
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin t.	26,2	25,9
Boyovut t.	65,6	64,2
Guliston t.	36,0	36,8
Sayxunobod t.	38,7	38,7
Mirzaobod t.	38,4	35,3
Sardoba t.	33,5	32,6
Sirdaryo t.	64,1	64,6
Xovos t.	47,8	47,9

### Hududlar kesimida aholi zichligi (2020-yil 1-aprel holatiga to'g'ri keladigan aholi, 1 kv kmga)




**Tug'ilish.** 2020-yilning yanvar-mart oylarida 4,4 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 20,8 promilleni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,5 promillega ko'paygan (2019-yilning yanvar-mart oylarida 20,3 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2019-yilning mos davriga nisbatan Guliston shahrida (28,7 promilledan 33,1 promillega), Yangiyer shahrida (21,2 promilledan 23,6 promillega), Sayxunobod tumanida (19,9 promilledan 20,6 promillega), Guliston tumanida (17,6 promilledan 18,5 promillega), Sardoba tumanida (20,1 promilledan 21,9 promillega) Mirzaobod tumanida (19,3 promilledan 20,4 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Shirin shahrida (16,2 promilledan 13,7 promillega) hududlarda qayd etildi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning xomiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

### Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar-mart)



**Sirdaryo viloyati bo`yicha tug`ilganlar soni, kishi  
(yanvar-mart)**


	<b>2019-yil.</b>	<b>2020-yil.</b>	<b>O`sinh sur`ati, % da</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>4169</b>	<b>4379</b>	<b>100,2</b>
Guliston sh.	632	746	118,0
Shirin sh.	74	64	86,5
Yangiyer sh.	223	255	114,3
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	262	217	82,8
Boyovut	585	599	102,4
Guliston	307	334	108,8
Sayxunobod	372	395	106,2
Mirzaobod	340	373	109,7
Sardoba	321	359	111,8
Sirdaryo	617	629	101,9
Xovos	436	408	93,6

## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2020-yilning yanvar-mart oylarida 0,9 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,1 promilleni tashkil etdi, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega kamaydi. (2019-yilning yanvar-mart oylarida 4,4 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2019-yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada o'sish Shirin shahrida (3,7 promilledan 4,5 promillega), Sardoba tumani (3,2 promilledan 3,4 promillega), Mirzaobod tumani (3,2 promilledan 3,6 promillega) tumanlarida kuzatilgan bo'lib, aksincha Sirdaryo tumani (5,4 promilledan 4,5 promillega) kamayish holati kuzatildi.


### Vafot etganlar



**Erkaklar:**  
0,5 ming  
kishi

**Ayollar:**  
0,4 ming  
kishi

### Hududlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar-mart)



**Sirdaryo viloyati bo`yicha o`lganlar soni, kishi  
(yanvar-mart)**

	<b>2019-yil.</b>	<b>2020-yil.</b>	<b>O`sinh sur`ati %da</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>903</b>	<b>857</b>	<b>94,9</b>
Guliston sh.	116	111	95,7
Shirin sh.	17	21	123,5
Yangiyer sh.	57	50	87,7
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	52	48	92,3
Boyovut	127	128	100,8
Guliston	87	83	95,4
Sayxunobod	77	71	92,2
Mirzaobod	57	65	114,0
Sardoba	51	55	107,8
Sirdaryo	167	144	86,2
Xovos	95	81	85,3




## Demografik holat

2020-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 60,3 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,7 % i o'simtalardan, 5,7 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,5 % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 6,3 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,1 % i yuqumli parazitar kasalliklardan hamda 13,4 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 53 nafarni tashkil etib, ularning 73,6 % i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 26,4 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, % da)



**Nikoh.** 2020-yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,2 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,6 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2019-yilning mos davriga nisbatan Yangiyer shahrida (132,7 %), Guliston tumanida (128,2 %), Sirdaryo tumanida (122,1 %), ga sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha eng yuqori kamayish sur'atlari Shirin shahri (76,0 %), Oqoltin (79,4 %), Sardoba (81,3 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

**Nikohdan ajralishlar.** 2020-yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,3 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 1,5 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2019-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Boyovut (178,6%), Sirdaryo (130,2 %) va Mirzaobod (122,7 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

### Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar-mart)

	Nikoh tuzganlar	Nikoh koeffitsiyenti
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1183</b>	<b>5,6</b>
Guliston sh.	252	11,2
Shirin sh.	19	4,1
Yangiyer sh.	73	6,8
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin t.	77	6,0
Boyovut t.	148	4,6
Guliston t.	91	5,0
Sayxunobod t.	75	3,9
Mirzaobod t.	77	4,2
Sardoba t.	74	4,5
Sirdaryo t.	177	5,5
Xovos t.	120	5,1

## Demografik holat

### Hududlar kesimida nikoh ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar-mart)

	Ajrim	Ajrim koeffitsiyenti
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>309</b>	<b>1,5</b>
Guliston sh.	47	2,1
Shirin sh.	9	1,9
Yangiyer sh.	22	2,0
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin t.	17	1,3
Boyovut t.	50	1,6
Guliston t.	28	1,6
Sayxunobod t.	15	0,8
Mirzaobod t.	27	1,5
Sardoba t.	18	1,1
Sirdaryo t.	56	1,8
Xovos t.	20	0,8

### Sirdaryo viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-mart)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2019-yil.	2020-yil.	O'sish sur'ati, % da	2019-yil.	2020-yil.	O'sish sur'ati, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1143</b>	<b>1183</b>	<b>103,5</b>	<b>275</b>	<b>309</b>	<b>112,4</b>
Guliston sh.	246	252	102,4	44	47	106,8
Shirin sh.	25	19	76,0	9	9	100,0
Yangiyer sh.	55	73	132,7	23	22	95,7
<i>tumanlar:</i>						
Oqoltin	97	77	79,4	18	17	94,4
Boyovut	146	148	101,4	28	50	178,6
Guliston	71	91	128,2	24	28	116,7
Sayxunobod	67	75	111,9	22	15	68,2
Mirzaobod	82	77	93,9	22	27	122,7
Sardoba	91	74	81,3	16	18	112,5
Sirdaryo	145	177	122,1	43	56	130,2
Xovos	118	120	101,7	26	20	76,9

**Migratsiya.** 2020-yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 2,4 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 2,5 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 0,1 ming kishi bo'lib, 2019-yilning mos davrida minus 0,2 ming kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2019-yil yanvar- mart	2020-yil yanvar- mart
<b>Ko'chib kelganlar</b>	2,4	2,4
<b>Ko'chib ketganlar</b>	2,6	2,5
<b>Migratsiya sal- dosi</b>	-0,2	-0,1

Migratsiya saldosinging yuqori darajasi Boyovut tumanida (minus 0,2 ming kishi), Xovos tumanida (minus 0,1 ming kishi) qayd etildi.

